



INGLIZ ADABIYOTINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Tuxtayeva Zuxra

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi 1-bosqich
magistranti*

Annotatsiya: ingliz adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlar talabaning faolligini rag'batlantiradi, o'rgatilayotgan materialni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Interaktiv usullar muhokamalar, guruh ishlari, o'yinlar, multimedia vositalari orqali ta'limni qiziqarli va samarali qiladi. Bu metodlar o'quvchini ijodiy fikrlashga, tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi hamda mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: Ingliz adabiyoti, o'qitish, interaktiv metodlar, samaradorlik, o'quv jarayoni, faollik, muhokama, guruh ishlari, o'yinlar, multimedia, ijodiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlari, mustaqil o'rganish.

Аннотация: использование интерактивных методов в преподавании английской литературы повышает эффективность учебного процесса. Эти методы стимулируют активность студентов и помогают быстрее и глубже усваивать изучаемый материал. Интерактивные формы включают обсуждения, групповую работу, игры, мультимедийные средства, что делает обучение интересным и продуктивным. Такие методы способствуют развитию творческого мышления, аналитических способностей и стимулируют самостоятельное обучение.

Ключевые слова: английская литература, преподавание, интерактивные методы, эффективность, учебный процесс, активность, обсуждение, групповая



работа, игры, мультимедиа, творческое мышление, аналитические способности, самостоятельное обучение.

Annotation: using interactive methods in teaching English literature increases the effectiveness of the learning process. These methods encourage student activity and help to absorb the taught material more quickly and deeply. Interactive techniques such as discussions, group work, games, and multimedia tools make education interesting and effective. These methods stimulate creative thinking, develop analytical skills, and promote independent learning.

Key words: english literature, teaching, interactive methods, effectiveness, learning process, activity, discussion, group work, games, multimedia, creative thinking, analytical skills, independent learning.

Интерактив metodlar — bu o‘quvchini faol muloqotga jalb qilish, juftlikda yoki guruhda ishlash, topshiriqlarni hamkorlikda bajarish, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, simulyatsiyalar, real hayotiy holatlarni modellashtirishga asoslangan metodlardir. Bu metodlar orqali o‘qituvchi darsda muhit yaratadi, o‘quvchi esa mustaqil fikr yuritadi, tilni amaliy qo‘llaydi, savol beradi va javob topadi. Bu esa tilni “tashqi” emas, “ichki” vosita sifatida o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ingliz tilini o‘rgatish jarayonida interaktiv usullardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Avvalo, bu metodlar o‘quvchilarni darsning markaziy subyekti sifatida faol ishtirok etishga undaydi, natijada ularning tilga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgaradi va darslar jonli, harakatchan, qiziqarli muhitda kechadi. Shuningdek, interaktiv faoliyatlar o‘quvchilar o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni faollashtirib, ularning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Interaktiv metodik yondashuv nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda sog‘lom raqobat muhitini yaratadi, o‘z fikrini erkin ifodalash, tashabbus ko‘rsatish kabi



fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har xil darajadagi o'quvchilarga moslashtirilgan topshiriqlar orqali differensial yondashuvga ham zamin yaratiladi. Bugungi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan interaktiv usullar ta'limda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, Quizizz, Wordwall, Kahoot, Mentimeter, Liveworksheets kabi platformalar yordamida til o'rganish jarayoni gamifikatsiya asosida tashkil qilinmoqda, bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ammo interaktiv metodlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchining metodik salohiyati, darsga puxta tayyorgarligi, rejalashtirish ko'nikmasi, tashkiliy qobiliyati yuqori bo'lishi zarur. Har bir o'yin yoki metod topshiriqning maqsadiga mos bo'lishi, dars mazmuni bilan integratsiyalashgan holda tanlanishi kerak. Shuningdek, guruhdagi o'quvchilar soni, ularning til darajasi, psixologik holati ham e'tiborga olinishi lozim. Yuqori samaraga erishish uchun interaktiv metodlar doimiy tatbiq qilinishi, o'quvchilarda o'zaro muloqot, tilga bo'lgan ishonch, faol pozitsiyani shakllantirishi kerak.

Til o'rganish asosida o'quvchi, talabalarda fanni o'rganib ingliz tilining grammatikasini bilgan holda erkin muloqot qilishi, mustaqil holatda fikr bildirish, tafakkur qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tili darslarini ilg' or zamonaviy usullar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llab darsni tashkil qilish ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda, og'zaki va yozma nutqini o'stirishda o'rni salmoqli sanaladi. O'quvchi yoshlarga ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ulardagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, qo'llab- quvvatlash ishlarini olib borish bu tilni tezroq o'rganishga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilarni ingliz tilini o'rganishga oid quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur

- turli elektron manbalar bilan ta'minlash ishlarini olib borish;
- ta'lim muassasalarida til o'rganish bo'yicha metodik ta'minotni yaratish;



- mavjud o'qitilayotgan darsliklardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- dars jarayoniga kuchli va malakali mutaxassislarni jalb qilish;
- o'quv jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarining yetarli darajada joriy etish;
- o'qitishda o'quvchilarni rag'batlantirish ishlariga e'tibor qaratish va baholash tizimi sifatini nazorat qilish.

Ingliz tili darslarining sifat va samaradorligini nazoratga olish, olingan ma'lumotlarni asosiy qismini kundalik hayotdan olishulardagi nutq ko'rinishlarida o'sganlida namoyon bo'ladi. Darsda innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o'qitish va o'rgatish vositasi sifatida baholash ko'plab ijobiy natijalarni, afzalliklarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Innovatsiya (inglizcha "innavatsion") - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda ahamiyatli jihatga ega. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Interaktiv metodlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular o'qituvchi va o'quvchilar bilan hamkorlikda, birgalikda faoliyat olib borishi vositasida amalga oshiriladi. Bu kabi hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning bilimini kengaytirishga, kommunikativ va nutqiy kompetensiyalar rivoji uchun asos bo'ladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tafakkuri, tasavvurlari, dunyoqarashi, qiziqishlarini orttirish bo'yicha olib borilgan ishlarda o'z ifodasini topadi. Makkartining ta'kidlashicha, "chet tillarini o'qitish metodologiyasi o'tgan yarim asr davomida juda rivojlandi.

Ingliz adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogika talablariga javoban interaktiv metodlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy dars usullaridan farqli o'laroq, interaktiv



yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi hamda ular orasida fikr almashish, savol-javob, muhokama va ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Интерактив metodlarning asosiy xususiyatlari:

- Faol ishtirok – o'quvchilar mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga jalb qilinadi.

- O'zaro aloqalar – guruhda ishlash, fikr almashish orqali ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi.

- Multimediyadan foydalanish – audio, video, slaydlar tushunishni oshiradi va darsni qiziqarli qiladi.

Metodlarni amaliy qo'llanilishi:

- Guruh ishlari: o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, adabiy asarni tahlil qiladi, savollarga javob berishadi.

- Rol o'ynash: asar qahramonlarini jonlantirish uchun viktorina, teatr sahnalari tashkil qilinadi.

- Debatlar: adabiyot asosidagi muammolar yuzasidan fikr almashish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

- Multimedia vositalari: film, audio kitoblar, slaydlar va interaktiv dasturlar darsni yanada jonlantiradi. Ingliz adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilimni chuqurlashtiradi, balki ularning til ko'nikmalari, ijodiy va tanqidiy tafakkuri rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu usullar o'quv jarayonini samarali, qiziqarli va zamonaviy qiladi, shuningdek o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Shu sababli, interaktiv metodlarni keng joriy etish va o'qituvchilar malakasini oshirish muhimdir.



Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Umarova, N. R., & Kholmatova, O. U. (2021). Proverbs and their morphological system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 792-797.
2. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching*. — Longman, 2007. — 448 p.
3. Sirojidinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(4), 131-134.